

**MAKTABGACHA TA'LIMNING KATTA YOSH BOSQICHIDA
BOLALARNING GENDER TENGLIK TAMOYILLARINI
HISOBGA OLGAN HOLDA TA'LIMYIY FAOLIYATNI
SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI**

Olimjonova Ummugulsun Odiljon qizi

Qo'qon DU. Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Olimjonovau46@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatini gender yondashuviga asoslangan holda tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot bolalarning gender identifikatori, ijtimoiy roli va o'quv faoliyatiga munosabati asosida o'tkaziladi. Maqolada gender yondashuviga mos keladigan o'yinlar, mashg'ulotlar va interaktiv usullar orqali bolalarning tengligi, ijtimoiy ko'nikmalari, jamoaviy ishlashi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashning samarali usullari keltirilgan. Shuningdek, tarbiyachilarga gender stereotiplarini kamaytirish, individual xususiyatlarni rivojlantirish va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar mavjud. Ushbu ish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gender nuqtai nazaridan ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi, bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim, gender, identifikator, o'yin, faoliyat, usul, stereotip, rivojlanish, ko'nikma, adolat.

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing educational activities based on the gender approach of preschool older children. The study considers children's gender identity, social roles, and attitudes toward learning activities. The article presents effective methods for promoting equality, social skills, teamwork abilities, and personal development through gender-appropriate games, lessons, and interactive methods. In addition, recommendations for educators are provided to reduce gender stereotypes, support individual development, and enhance social engagement. This work aims to help preschool institutions organize educational processes more effectively while considering gender approaches, ensuring comprehensive social and personal development of children and reinforcing the principles of equality.

Keywords: education, gender, indenficator, game, activity, method, streotype, development, skill, equality.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiy faoliyati ularning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida gender yondashuvni hisobga olish bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi va gender stereotiplarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2021 yil 28 maydagi "2021–2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi"¹ qarori maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va gender tengligini ta'minlash bo'yicha huquqiy asos yaratadi.

Gender yondashuvni tatbiq etish orqali bolalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va jamiyatdagi teng huquqli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Ta'lim sohasida gender yondashuv bolaning rivojlanishida jinsiy tafovutlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekstlarini hisobga olishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda gender yondashuv nafaqat erkak va ayollarning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlashga, balki ta'lim mazmuni, metodlari va uslublarini ham bolalarning jinsiy xususiyatlariga moslashtirishga qaratilgan.

Gender yondashuv asosida ta'limga yondashish, ayniqsa maktabgacha ta'lim bosqichida muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda bola o'z shaxsiyatini shakllantiradi va o'zini jamiyatdagi jinsiy rolga moslab anglay boshlaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida gender stereotiplarni bartaraf etish, barcha bolalar uchun teng imkoniyatli muhit yaratish dolzarb vazifadir.

Gender tengligi tamoyili BMT, YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'lim siyosatida asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Xususan, YUNESKOning 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) gender tengligi (5-maqсад) asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu tamoyil ta'lim tizimida barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishni ko'zda tutadi².

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijtimoiy, emotsional va shaxsiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratiladi. Shu jarayonda, bolalarning jinsiy identifikatsiyasi va gender yondashuvlarini hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Gender yondashuvi bolalarda teng huquqlilikni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish, bir-biriga hurmat va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Pedagogika sohasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy faoliyatni tashkil etish bugungi kunda muhim masalalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning o'quv

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 28.05.2021 yildagi "2021–2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" qarori.

² UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris: UNESCO, 2017

faoliyatiga bo'lgan munosabati, jinsga oid stereotiplar va ijtimoiy roli pedagogik metodlarni tanlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, gender yondashuviga mos o'yinlar, mashg'ulotlar va interaktiv metodlar orqali bolalarda shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirish pedagogik amaliyotning muhim qismidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ko'pgina olim-o'qituvchilar va psixologlar gender yondashuvi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatini tashkil etish masalalarini o'rganishdi. M.R. Shoyimova³ o'z ishida bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida pedagogik usullarning rolini ta'kidlab, gender yondashuviga asoslangan ta'lim metodologiyasini tahlil qiladi. Muallifning fikriga ko'ra, gender yondashuvini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish bolalarda tenglikni shakllantirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

G.M.Nazirova⁴ maktabgacha ta'lim va ta'limni tashkil etishda gender yondashuvining amaliy jihatlarini ko'rib chiqadi. Muallifning ta'kidlashicha, pedagogik jarayonda bolalarning qiziqishlari va ijtimoiy rolini hisobga olgan holda gender yondashuvi zarur. Shu bilan birga, gender stereotiplarini kamaytirishga va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Gulzoda Eshonqulova⁵ o'zbek oilalaridagi gender tengligi munosabatlarini tahlil qiladi va gender stereotiplari bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy gender munosabatlarini ta'lim jarayoniga kiritish bolalarning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Shtileva va L.V.Gradusova⁶ maktabgacha ta'limda gender pedagogikasini o'rganadilar, pedagogik ta'limdagi jinsiy farqlarni hisobga olishning samarali usullarini aniqlaydilar. Ularning fikricha, jinsga sezgir sinfni rejalashtirish bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

J.Butler⁷ gender tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilib, jins va o'ziga xoslik maktabgacha ta'limda jinsni tushunish uchun nazariy asos yaratadigan ijtimoiy tuzilmalar sifatida shakllanganligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, Giddens (2019) ijtimoiy kontekstning ahamiyatini, bolalarning jamiyatdagi rolini va gender stereotiplarini o'rganishda sotsiologik yondashuvni ta'kidlaydi.

Abdukodirova va Azimova⁸ maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatini gender yondashuvi asosida tashkil etish amaliyotini tahlil qiladi. Tadqiqot

³ Shoyimova M.R. Gender yondashuv asosida ta'lim tashkil etish metodikasi. Toshkent, 2019.

⁴ Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Toshkent, 2024.

⁵ Eshonkulova G. O'zbek oilalarida gender tenglik munosabatlari... Jamiyat va innovatsiyalar, 2022.

⁶ Gradusova L.V. Gendernaya pedagogika. Moskva: Prosveshchenie, 2023

⁷ Butler, J. Gender Trouble. Routledge, 2016.

⁸ Abduqodirova N.X., Azimova D.B. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender yondashuv... JDPI ilmiy jurnali, 2022, 1–10-betlar.

natijalari shuni ko'rsatadiki, jinsga mos keladigan o'yinlar, mashg'ulotlar va interaktiv usullar bolalarning faolligi, ijtimoiy o'zaro ta'siri va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

METODLAR.

1. Teng imkoniyat yaratish metodi.

Bolalarga jinsidan qat'i nazar bir xil imkoniyatlar yaratiladi.

— Har bir bola barcha faoliyat turlarida qatnashish huquqiga ega: konstruktor, rasm, sport, pazandalik o'yinlari va boshqalar.

— “Bu o'g'il bolalar uchun”, “Bu qizlar uchun” kabi cheklovchi iboralarni ishlatmaslik.

2. Rol almashish o'yinlari metodi

Bolalarni turli rollarni sinab ko'rishga undash.

— Qizlar ham quruvchi, mashinist, shifokor bo'la olishi;

— O'g'il bolalar ham oshpaz, tarbiyachi, rassom rovida ishtirok etishi mumkin.

Bu metod gender stereotiplarni yumshatadi.

3. Nutq va muloqotni neytrallash metodi

Tarbiyachi nutqida genderga xos cheklovlersiz neytral ifodalardan foydalanadi.

— “Kelinglar, bolajonlar”, “Kim ishtirok etmoqchi?”, “Kim yordam beradi?”

— “Qizlar jim turishsin”, “O'g'illar kuchli bo'lishi kerak” kabi iboralarni rad etish.

4. Kitob va ertaklarni gender sezgir ishlatish metodi

O'qiladigan ertaklar va hikoyalarni tanlashda gender tenglikka rioya qilish.

— Qizlar faqat yordamchi rovida bo'lgan ertaklar o'rniga faol, jasur obrazlar berilgan asarlarni tanlash.

— O'g'il bolalar faqat kuch ishlatadigan rollarda emas, mehribon va g'amxo'r obrazlarda ham ko'rsatish.

5. Birgalikdagi guruh faoliyatlari metodi

Qiz va o'g'il bolalarni aralash guruhlarda ishlashga undash.

— Jamoaviy o'yinlar, qurilish ishlari, ijodiy topshiriqlarda rollarni jinsga qarab bo'lmasdan teng taqsimlash.

— Har bir bolaga yetakchilik qilish imkonini berish.

6. Tanlov va erkinlik metodi

Bolaga tanlash huquqini berish orqali gender stereotiplarni buzish.

— Qiz bola mashina o'ynasa yoki konstruktor yig'sa, uni qo'llab-quvvatlash.

— O'g'il bola rasm chizishga, oshxona o'yinlariga qiziqsa, tabiiy qabul qilish.

7. Namuna orqali o'rgatish metodi.

Tarbiyachi shaxsiy xulqi, nutqi va munosabati bilan gender tenglikni ko'rsatadi.

— Erkak va ayol kasblarini teng qadrlash.

— Qiz bolalar kuchli, o'g'il bolalar mehribon bo'la olishini misollar orqali

tushuntirish.

8. Mulohaza va suhbat metodi

Bolalar bilan tenglik haqida qisqa, sodda suhbatlar olib borish.

— “Kim kuchli bo‘lishi mumkin — qizlar ham, o‘g‘illar ham.”

— “Kasblar – hammaga ochiq.”

Bu metod bolalarda ijtimoiy tasavvurni rivojlantiradi.

10. Ota-onalarni jalb etish metodi

Gender tenglik faqat maktabgacha ta‘lim tashkilotida emas, oilada ham qo‘llanishi uchun ota-onalar bilan ishlash.

— Kichik suhbatlar, eslatmalar, tavsiyalar berish.

— Uyda ham o‘yinlarini cheklamaslik bo‘yicha tushuntirish.

MUNOZARA.

Maktabgacha ta‘limda gender tengligi tamoyillarini qo‘llash bolalarning ijtimoiy rollarni tanlash erkinligini va stereotiplarning shakllanishining yo‘qligini ta‘minlaydi. Qizlar va o‘g‘il bolalarning konstruktiv o‘yinlar jarayonida teng ravishda ishtirok etishi, materiallarni erkin tanlashi va o‘z g‘oyalarini amalga oshirishi ularning fazoviy tafakkuri va ijodiy tafakkurini teng darajada rivojlantiradi. Tematik dizayn darslarida rollarning gender taqsimotining yo‘qligi — masalan, qizga quruvchi yoki haydovchi rolini, o‘g‘il bolaga esa o‘qituvchi yoki dizayner rolini o‘ynashga imkon berish-gender tengligini mustahkamlaydi.

Biroq, ijodiy qurilishda bolalar o‘z tasavvurlarini erkin ifoda etishlari mumkin, gender farqlari esa asosiy omil emas. Ikkala jins vakillari ham texnik model, dekorativ ob‘ekt yoki mavhum shakllarni yaratishi mumkin. Bu jarayon bolalarning mustaqillik, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini teng darajada rivojlantiradi.

Umuman olganda, dizayn va konstruktiv o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida gender tengligini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib, ularning manfaatlarini erkin rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

XULOSA

Maktabgacha ta‘lim jarayonida gender tengligi tamoyillarini qo‘llash bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Gender cheklovlarisiz ta‘lim faoliyatini tashkil etish bolalarga o‘z manfaatlarini erkin ifoda etish, mustaqil ravishda ijtimoiy rollarni tanlash va stereotiplarsiz fikr yuritish imkonini beradi. Qizlar va o‘g‘il bolalarning konstruktiv, tematik va ijodiy tadbirlarda teng ishtirok etishi fazoviy fikrlash, muammolarni hal qilish, aloqa va ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni teng ravishda rivojlantiradi.

O‘qituvchi tomonidan rollarni teng taqsimlash, jinsi bo‘yicha vazifalarni cheklash, barcha bolalarni erkin tanlovga yo‘naltirish gender tengligini mustahkamlovchi asosiy omillardir. Qizlarga ta‘lim jarayonida texnik, konstruktiv

yoki faol rollarni, o'g'il bolalarga esa ijodiy, g'amxo'r yoki kommunikativ rollarni bajarish imkoniyatini berish gender stereotiplarini hisobga olmagan holda kelajakdagi professional tanlovni shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, gender yondashuviga asoslangan ta'lim bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, ijtimoiy tenglik tamoyillariga sodiq avlodni tarbiyalaydi, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv, adolatli va zamonaviy ta'lim muhitini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi "Bolalar huquqlari to'g'risida" Qonuni (2018). Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi".
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari".
5. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida" Qonuni (2019).
6. UNESCO (2018). Gender equality in early childhood education. Paris.
- 7 UNICEF (2020). Gender-responsive pedagogy in early years. N
6. Shoyimova, M.R. (2019). Gender yondashuv asosida ta'lim tashkil etish metodikasi. Toshkent.
7. Nazirova, G.M. (2024). Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Toshkent, 9 bet.
8. Gulzoda, E., & Eshonkulova, D. (2022). "O'zbek oilalarida gender tenglik munosabatlarini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari." Jamiyat va innovatsiyalar jurnali.
9. Штылева, Л.В. (2024). Фактор пола в образовании: гендерный подход и анализ. Москва: Издательство «Просвещение», 14 bet.
10. Butler, J. (2016). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.
11. Giddens, A. (2019). Sociology. Polity Press, pp. 92–97.
12. Abduqodirova, N.X., & Azimova, D.B. (2022). "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatini tashkil etishda gender yondashuvining ahamiyati." Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali, 1–10.
14. Karimova, V. (2019). Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
21. Vygotskiy, L. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.
22. Hasanboeva, O., & Yo'ldosheva, Sh. (2017). Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent.